

28-dars

Darsning mavzusi: So'roq gaplarni mustahkamlash

(77 – 79-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: so'roq gaplar haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgarlar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalash. Ularga g'amxo'rlik tuyg'usini singdirish; o'zining xato-kamchiliklarini to'g'ri tushunish, mustaqil o'qib-o'rganish va bilimni muntazam oshirib borishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, "Qaynoq mikrofon" o'yini, "U nima qilyapti?" ta'limiy o'yini, "Maqollarni to'g'ri o'qi!" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Bolalar, mehnatni seving!

O'tilganlar yuzasidan "U nima qilyapti?" o'yini 3ta guruhdan bittadan o'quvchi chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab beradi.

77-mashq og'zaki bajariladi. She'r mazmuniga mos maqollar o'quvchilardan so'raladi.

"Maqollarni to'g'ri o'qi!" ta'limiy o'yini.

Quyidagi maqollar qismlar ajratib beriladi. O'quvchi qismlarni birlashtirib, maqolni yaxlitlashi lozim.

Yaxshi yaxshiga yondashtirar, yomon yo'ldan adashtirar. Do'st so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz – do'stini. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.

III. Mustahkamlash.

78-mashq o'quvchilarga o'qitiladi. Berilgan matndan to'rtta gap yozdiriladi. Ular gapning qaysi turiga mos kelishi qavslar ichida belgilanadi.

Dars so'ngida "Qaynoq mikrofon" metodini qo'llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. O'quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (qog'ozdan ishlangan mikrofon maketi, qalam, ruchka va h.k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o'quvchi turli savollar beradi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Mikrofonni olgan o'quvchilar tezda javob aytishlari kerak bo'ladi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

-Darsda nimalar haqidagi bilimlarimizni yodga tushirdik?

-Bugungi mavzudan nimalarni bilib oldingiz? kabi savollar beriladi.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

79-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.